

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA DILNOZA ADHAMJON QIZI

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARIXIY VA MA’NAVIY
IDEALLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Tarix fanlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**
**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi

Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Tarix fanlari misolida)..... 3

Турсунова Дилноза Адхамжон кизи

Усовершенствование методики развития аксиологического отношения будущих учителей к историческим и духовным идеалам (на примере исторических дисциплин)..... 25

Tursunova Dilnoza Adhamjon kizi

Improving the methodology for the development of the axiological attitude of future teachers to historical and spiritual ideals (on the example of Historical Sciences)..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA DILNOZA ADHAMJON QIZI

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARIXIY VA MA‘NAVIY
IDEALLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**
(Tarix fanlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/Ped8513. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyumi) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddiqov Ilyosjon Bahromovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Temirov Nabijon Soliyevich
pedagogika fanlari doktori, professor
Xajieva Maksuda Sultanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "25" 10 kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Gender tengligi tadqiqotlar markazi, 1-qavat, majlislar zali. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

586 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi Tel.: (+99873) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "11" 10 dagi 38-raqamli reestr bayonnomasi).



B.Sh.Shermuhammadov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

B.X.Baydjanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

B.Q.Qurbonova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarni yuksak ijtimoiy-ma‘naviy va tarixiy ideallar asosida tarbiyalash, ularni ijtimoiy hayotda o‘z maqsadlari va intilishlariga ega mustaqil shaxs sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlarda bo‘lajak pedagoglarda ma‘naviy ideallarini shallantirish, ularda tarixiy va ma‘naviy ideallik obrazlarining hayoti va faoliyatiga chuqur hurmat hissini shakllantirish, ulardek qahramonlik ko‘rsatishga yo‘naltirish va shu asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangi tizimini yaratish, samaradorligini oshirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda tarix fanini o‘qitish tizimini modernizatsiyalash hamda shu asosida tarixiy va ma‘naviy ideallarga doir bilimlarni rivojlantirishning zamonaviy metodikasini yaratish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik zarurati yuzaga chiqmoqda.

Dunyoning ilg‘or ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma‘naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida ularda tarixiy tafakkurni yuksaltirish, tarixiy qahramonlar va etakchilarga obyektiv munosabatini qaror toptirishga doir ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar orqali jamiyatlarning tarixiy xotirasini reallashtirish, tarixiy-ma‘naviy bilimlarini turli uydirmalardan tozalash, tarixiy ideallarning qahramonligi, vatanparvarligi, ilm-fan, san‘at, din, boshqaruv va boshqa ijtimoiy munosabatlardagi faolligini yoritish orqali tarixiy-ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirish ham maqsad qilinmoqda. Bunday xalqaro ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma‘naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham “yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash” ga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan. “Davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish” oliy ta’limda ma‘naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda alohida ustivorlik kasb etadi¹. Bu orqali “o‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan” tarixiy-ma‘naviy dunyoqarashi rivojlangan jamiyatni yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Buning uchun “yoshlarimizni tarixdan saboq olish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020y., 06/20/0521-son.

xulosa chiqarishga o'rgatish, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirish" orqali ijtimoiy-manaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan O'zbekistonda tarixiy va ma'naviy idelallarga doir ilmiy izlanishlarining yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri muammolari B.To'ychiyev, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin, O.Abdurasulov, A.Sa'diyev, E.Safayeva, N.Remeyev, Y.G'affarov, T.Toshpo'latov, S.Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Xodjayev, N.M.Egamberdiyeva, Q.Shonazarov, H.Boltaboyev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ham yoshlarning tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish, bu jarayonda qahramonlik idellarining namunaviylik imkoniyatlaridan unumli foydalanishga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, olimlar V.A.Slatsyonin, G.I.Chijakova, E.N.Shiyanov, N.E.Shurkova, I.P.Podlasiylar umuminsoniy qadriyatlar, ta'limda tarbiyaing ahamiyatini; A.Glinskiy, L.Glibenyurg, N.Kurbet, N.Nekrasova, V.Medvedev, A.Hutoroskiy, ning asosiy hususiyatlari ma'naviyat ahloq insoniylik tashqi motivatsion soha bilan bog'liqligini, ahloqning ijtimoiy jihatlari, hulq-atvor tamoyillari va normalari shaxslarning bir-biriga va jamiyatga munosabatida namoyon bo'lishini o'rganishgan. D.Frumin, T.I.Shamov, Yu.Tatur, S.G.Varovshikov, Ye.M.Baxorskiy, I.V.Komarov, A.Bolotov, A.N.Daxin, T.Ye.Hevenson, Yu.D.Kershalar ijodiy fikrlashni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarining psixologik-pedagogik jihatlari, rivojlanish mexanizmlarini; O.S.Gazmana, Y.V.Bonderevskoy, T.I.Vlasova, T.I.Petrakovalar aksiologik va

antropologik yondashuvlar nuqtai-nazaridan P.Petrov, S.I.Tyulyayev, S.P.Tolstov, K.Pirliyev, R.R.Safin, I.F.Xarlamov, I.Shchukinlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xorijiy olimlardan R.Mixner, S.Kautz, J.Sitser, Fernand Grenand, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Masataka Takeshita, Shi Yunli kabilar talaba-yoshlarning tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishdagi vazifalar, zaruriy choralar va mavjud muammolarning tahliliga bog'ishlangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Shunday bo'lsada bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasini tarix fanlari misolida alohida obyekt sifatida o'ragnilmagan. Mazkur tadqiqotimiz ayni ushbu muammoga bag'ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot rejasining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi TY-01-raqamli "Innovatsiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishning muammo va yechimlari (2017-2030-yy.)" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasi takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"tarixiy va ma'naviy ideal" tushunchasining mazmun-mohiyati va ilmiy-konseptual asoslari tadqiq etish;

tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni rivojlantirishning mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlarini majmuaviy tashxis etish;

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modelini takomillshatirish;

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi va metodik asoslarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti. Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, unda Qo'qon davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Guliston davlat universitetlaridan 583 nafar respondent-talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti. Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, suhbat, so'rovnoma, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarixiy-ma'naviy ideallik fazilatlarini (qahramonlik, jo'mardlik, oliyanoblik, bunyodkorlik) va akmeoshaxs xususiyatlari (tarixiy-ma'anviy jasorat, yuksak axloqiy sifatlar, ijtimoiy ta'sir)ni aksiologik yondashuv (qadriyali munosabat) imkoniyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini integrativ rivojlantirishning nazariy asoslari takomillashtirilgan;

aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallariga qadriyatli munosabatini rivojlantirishni metodik va didaktik asoslarini majmuaviy tashxis etish, tarixiy va ma'naviy ideal shaxsga xos ma'naviy-axloqiy sifatlarni kompetensiyaviy tizimlashtirish, o'quv mashg'ulotlarini loyihalashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli vaziyatli topshiriqlar, guruh munozara, o'quv loyihalarini tarix ta'limidagi majburiy va tanlov fanlar amaliyotiga vertikal va gorizontal qo'llashning didaktik imkoniyatlarini intensivlashtirishni ta'minlash asosida asoslangan;

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish texnologiyasining amaliy komponenti noan'naviy mashg'ulot (sayohat, taqdimot, tadqiqot, ma'ruza-munozara, seminar-trening) shakllarini shaxsiy faoliyat tajribasi bilan refleksivlik darajasini kengaytirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning etnopedagogik va aksiopedagogik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish maqsadida "Pedagogik aksiologiya" nomli darslik yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasi samaradorligi oshirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llangan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, og'zaki nutq keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va metodik tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik materiallarning tizimlashtirilganligi, talabalarda tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan usullar, metodlar va texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning shakl, metod va vositalarining ishlab chiqilganligi, talabalarda tarixiy ideallarga doir bilimlarini rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlaridan "Tarix o'qitish metodikasi", "O'zbekiston tarixi", "Umumiy pedagogika", "Falsafa" "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida:

tarixiy-ma'naviy ideallik fazilatlari (qahramonlik, jo'mardlik, oliyanoblik, bunyodkorlik) va akmeoshaxs xususiyatlari (tarixiy-ma'naviy jasorat, yuksak axloqiy sifatlar, ijtimoiy ta'sir)ni aksiologik yondashuv (qadriyali munosabat) imkoniyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini integrativ rivojlantirishning nazariy asoslari takomillashtirilganligiga doir ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy universitetida 2021-2022-yillardavomida bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdisiplinar platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-iyundagi 11-05-3872/04-son dalolatnomasi). Natijalarning joriy qilinishi bo'lajak tarix o'qituvchilarini o'quvchilarda tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishga tayyorlashning etnopedagogik va aksiopedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan.

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallariga qadriyatli munosabatini rivojlantirishni metodik va didaktik asoslarini majmuaviy tashxis etish, tarixiy va ma'naviy ideal shaxsga xos ma'naviy-axloqiy sifatlarni kompetensiyaviy tizimlashtirish, o'quv mashg'ulotlarini loyihalashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilganligiga doir ilmiy yangiliklar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i asosida № 218-627-raqam bilan ro'yxatga olingan "Pedagogik aksiologiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-iyundagi 11-05-3872/04-son dalolatnomasi). Natijalarning joriy qilinishi aksiologik yondashuv asosida tarixiy va ma'naviy ideallariga qadriyatli munosabatni shakllantirishni majmuaviy tashxis etish, tarixiy va ma'naviy ideal shaxsga xos ma'naviy-axloqiy sifatlarni tizimlashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli vaziyatli topshiriqlar, guruhviy munozara, o'quv loyihalarini tarix ta'limidagi majburiy va tanlov fanlar amaliyotiga vertikal va gorizontal qo'llashning didaktik imkoniyatlarini intensivatsiyasini ta'minlash asosida asoslanganligiga doir ilmiy yangiliklardan 2020-2022-yillarda O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy

faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-iyundagi 11-05-3872/04-son dalolatnomasi). Natijalarning joriy qilinishi bo'lajak tarix o'qituvchilarini o'quvchilarda tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishga tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metod va texnologiyalarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish texnologiyasining amaliy komponenti noan'naviy mashg'ulot (sayohat, taqdimot, tadqiqot, ma'ruza-munozara, seminar-trening) shakllarini shaxsiy faoliyat tajribasi bilan reflektivlik darajasini kengaytirish orqali takomillashtirilganligiga doir ilmiy yangiliklar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i asosida № 218-627-raqam bilan ro'yxatga olingan "Pedagogik aksiologiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-iyundagi 11-05-3872/04-son dalolatnomasi). Natijalarning joriy qilinishi bo'lajak tarix o'qituvchilarini tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari va mazmuni 5 ta xorijiy, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, tadqiqot doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tarixiy va ma'naviy ideallarning mazmuni hamda ularga aksiologik munosabatini shakllantirishning pedagogik zaruriyati, pedagogik imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

“Ideal” tushunchasi mukammal, benuqson yoki namunali deb hisoblangan standart yoki modelni anglatadi. Bu biror narsani o‘lchash yoki baholash uchun ishlatiladigan subyektiv yoki obyektiv standart bo‘lishi mumkin. Ideal g‘oyasi ko‘pincha maqsadlar yoki intilishlarni belgilash, mukammallik uchun etalonni ta‘minlash yoki taqqoslash uchun mos yozuvlar nuqtasi sifatida xizmat qilish uchun ishlatiladi. “Ideal” tushunchasi yunoncha “idea” ya’ni “namuna”, “meyor” degan ma’noni bildirishi qayd etiladi. Bizningcha, ideal bu ideal obraz, meyoriylik xususiyatiga ega bo‘lib, muayyan insonlar yoki ijtimoiy guruh xatti-harakatining xarakteri, usulini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Biroq o‘tmishda “ideal” tushunchasi bo‘lsa-da, uni ifodalovchi reallik atamasining nomi yo‘q edi. Buning o‘rniga turli so‘z va iboralar ishlatilgan va “ro‘yolik”, “hayotiylik” deb yuritilgan.

Mualliflik nuqtayi nazarimizga ko‘ra, ma’naviy ideal – bu subyektning tashqi dunyo, jamiyat va taraqqiyotga bo‘lgan munosabatini, uning ongida shakllangan subyektiv qarashlarini, gnoseologik tajribasini hamda ma’naviy-ruhiy izlanishlari natijasida yuzaga kelgan nazariy tushuncha hisoblanadi. Bu ideal nafaqat inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni aks ettiradi, balki obyektiv voqelikning subyektivlashtirilishi hamda kundalik tasavvurlarning ideallashtirilish jarayonlari mahsuli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tarixiy ideal esa ijtimoiy-tarixiy jarayonda xalq erki, ozodligi va istiqboli uchun kurashgan, jamiyat hayotida tub burilishlar yasagan, o‘zining insoniy fazilatlarini va faoliyati bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan shaxslar timsolida ifodalanadi. Bu shaxslar milliy ongda namunaviy obraz sifatida shakllanadi va avlodlar ongida tarixiy xotira va vatanparvarlikning barqaror modelini yaratadi.

Tarixiy ideal tushunchasi tarixiy jarayonda o‘zining buyuk insonparvarlik ishlari bilan nom qoldirgan, kam uchraydigan buyuk, yagona bo‘lgan tarixiy shaxsga nisbatan ishlatiladi. Shu ma’noda tarixiy ideal ijtimoiy-tarixiy hayotda tub burilish yasagan va xalqning erki, ozodligi hamda kelajagini ta‘minlash yo‘lidagi kurashning yo‘lboshchisi va bu faoliyatning axloqiy namunasi sifatida namoyon bo‘lgan shaxslar siymosi bilan belgilanadi. Yovuz bosqinchilarga va istilochilarga qarshi ozodlik bayrog‘ini ko‘targan Shiroq, To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberddi, Amir Temur kabi ajdodlarimiz jasorati va ularning shaxsiyati avlodlar uchun tarixiy ideal vazifasini o‘taydi.


Bugungi kunda pedagogik jarayonda aksiologik yondashuvdan foydalanish, aksiologik munosabatni shakllantirishga qaratilgan ta’limni tashkil qilish dolzarblik kasb etmoqda. Qadriyatga yo‘nalganlik shuningdek, o‘z ichiga individning hayotiy tajribalari va orzu-armonlarini ham qamrab oladi. Ana shu sababli qadriyatga yo‘nalganlik o‘ziga xos psixologik tavsifga ega bo‘lib, shaxs tuzilishining barcha komponentlari va yaxlit tizimini aks ettiradi.

Pedagogik aksiologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan olim B.Xodjayevning ta’kidlashicha, shaxsning o‘z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog‘liqlikda amaliy faoliyatga tayyorligi qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorgarlik holatini aks ettiruvchi kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emotsiya, hissiyot) komponentlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot predmeti bilan bog‘liqlikda aksiologik

yondashuv tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik yondashuvning tadqiqiy maqomi tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishning tizimli-funksional modelida turli xil vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: gnostik; yo'naltiruvchi; informatsion; baholovchi (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar o'rtasida o'zaro aloqadorlikni hosil qilish); texnologik (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish yo'llari, metod va vositalarini aniqlashtirish); integrativ (pedagogik jarayonning ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlari va ta'lim oluvchilarning shaxsiy talablarini o'zaro uyg'unlashtirish). Mazkur funksiyalarni amalga oshirish nafaqat ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, balki har bir talaba shaxsida ularni qaror toptirish yo'llarini izlab topishga imkon beradi. Shuningdek, aksiologik yondashuvdan asosiy maqsad: tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirish asosida talabalarda umuminsoniy, fuqarolik, madaniy va vatanparvarlikka doir qadriyatlarni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishni talab etuvchi ijtimoiy va shaxsiy omillarni integratsiyalash tamoyili. Mazkur tamoyil tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi yaxlitlikni ta'minlashni talab etadi; ijtimoiy faollik tamoyili. Mazkur tamoyil tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirish uchun muhim va zarur ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo'layotgan obyektiv o'zgarishlar bilan bog'liqlik talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishni talab etadi. Mazkur o'zgarishlar bevosita informatsion maydonlarning kengayib borishi, shu bilan birga Internet tarmog'ida muloqot madaniyati darajasining pasayib borishiga taalluqli bo'lib, ijtimoiy faollik tamoyili Internet tarmog'idagi turli tavsifdagi ma'lumotlarga subyektivi munosabatlarni tizimini aniqlashtirishni talab etadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Tarixiy va ma'naviy ideallar asosida aksiologik yondashuvning funksional modeli

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning metodik tizimi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni, modeli va metodikasi tadqiq etilgan.

Bugungi oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish, buyuk ajdodlarimizning tarixiy ideallik, namunaviylik sifatleri va ishlaridan saboq chiqarish, ularga o‘xshashga intilishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati ham ahamiyatli muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni ijobiy hal etish muvafaqqiyati quyidagi omillarning inobatga olish asosida ta’minlanishi mumkin: talabalarining tarixiy ideallar to‘g‘risida chuqur ilmiy ma’lumotlarga egaligi; oliy ta’limda yetarli miqdordagi tarixiy ideallarni tarannum etuvchi o‘quv adabiyotlarining mavjudligi; talabalarda badiiy asarlarni o‘rganish, ularning qahramonlar hayoti va faoliyatini bilishga nisbatan qiziqish va ehtiyojining mavjudligi; talabalarda tarixiy asarlarni qiziqish ortirish va ularda g‘oyalarni targ‘ib etishga yo‘naltirilgan faoliyatni yo‘lga qo‘yilishi; kitobxonlik faoliyatini tashkil etishga imkoniyatlar yaratish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarning pedagogik mazmuni va asoslarini chuqur o‘rganish, ularni ta’lim jarayonida tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda joriy etish orqali milliy ong va o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, kelajak avlodga tarixiy haqiqat va ma’naviy barqarorlikni yetkazishda muhim kafolatdir. Yuqoridagi bobda keltirganimizdek, tarixiy va ma’naviy ideallar – bu jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, axloqiy qadriyatlari asosida shakllanadigan, insonlarni komillik sari yetaklovchi g‘oyalar, orzu-intilishlar va ruhiy mezonlardir. Ular xalqning o‘zligini anglash, milliy birlikni mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va adolatparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy mezon hisoblanadi. Tarixiy ideallar, odatda, xalq hayotining tarixiy bosqichlarida shakllanib, millatning ozodlik, erkinlik, jasorat, adolat yo‘lidagi intilishlarini ifoda etadi. Masalan, Amir Temur shaxsiyatidagi “Kuch – adolatda” tamoyili tarixiy ideal sifatida qaraladi. Ma’naviy ideallar esa shaxsning axloqiy-ruhiy kamoloti, ichki dunyosining yuksalishiga xizmat qiladigan fazilatlar – halollik, sabr-toqat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi insoniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois, tarixiy va ma’naviy ideallar ta’lim-tarbiya tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali o‘quvchilarda milliy ong, tarixiy xotira va axloqiy etuklik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun tarixiy va ma’naviy ideallarning mohiyatini anglash, ularni yosh avlodga yetkazish, bu sohada chuqur bilim va pedagogik mahoratga ega bo‘lish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

“Tarix o‘qitish metodikasi” fani bo‘lajak pedagoglarda tarixiy faktlarni o‘rgatish bilan bir qatorda, ularni tarixiy tafakkur, vatanparvarlik, tanqidiy fikrlash va ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘un holda yetkazish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu fan quyidagi pedagogik yondashuvlar orqali tarixiy-ma’naviy bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi: didaktik tamoyillar asosida tarixiy

materialni tanlash va tizimlashtirish; tarixiy va zamonaviy voqealarni solishtirish orqali milliy ongni mustahkamlash; talabalarda tarixiy shaxslar faoliyati orqali ideal obrazlarni yaratish; bahs-munozaralar, esse va rol o'yinlari orqali tarixiy hodisalarga shaxsiy munosabat bildirishni rag'batlantirish. Bu fanni o'zlashtirish orqali bo'lajak o'qituvchi nafaqat tarixni o'qitishni, balki uning orqasidagi ma'naviy saboqlarni anglatishni ham o'rganadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

“Tarix o'qitish metodikasi” fanida o'tiladigan mavzular bo'yicha bo'lajak tarix o'qituvchilarini o'quvchilarda tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishga tayyorlashda rivojlantiriladigan ma'naviy-axloqiy sifatlar:

Mavzu nomi	Mazmuni	Metodlar	Aksiologik yondashuv	Ma'naviy-axloqiy sifatlar
Tarixiy manbalar bilan ishlash	Asl hujjatlar asosida tahlil	Manba tahlili, “Ovoz bergan tarix”	Tarixiy haqiqatga sodiqlik	Haqiqatparvarlik, analitik fikrlash
Darsni rejalashtirish	Dars strukturasi, texnologik xarita	Dars konstruksiyasi, “4T modeli”	Har bir tarixiy darsda qadriyat yondashuvi	Tashkiliy madaniyat, intizom
Pedagogik yondashuvlar	O'quvchini faollashtiruvchi metodlar	Kichik guruhlar bilan ishlash	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali qadriyat singdirish	Hamkorlik, hurmat, individual yondashuv
Baholash metodikasi	Formativ va summativ baholash	Rubrikalar, “Refleksiya doirasi”	Baholash orqali o'zini anglash va mas'uliyat	O'z-o'zini tahlil qilish, halollik

“O'zbekiston tarixi” fani esa o'zbek xalqining boy tarixiy merosi, ma'naviy qadriyatlari, ozodlik uchun kurashlari, buyuk allomalari va ularning faoliyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu fan orqali: talabalar milliy g'urur, vatanparvarlik, tarixiy xotira kabi tushunchalarni anglaydi; Amir Temur, Alisher Navoiy, Islom Karimov kabi tarixiy shaxslar timsolida milliy ideal shakllanadi; tarixiy bosqichlar orqali xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'li va sinovlari tushuntiriladi; talabalar mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tarixiy siyosiy islohotlarni baholashga o'rganadilar (2-3-jadvalga qarang).

2-jadval

“O'zbekiston tarixi” fanining 1-2-modullarida o'tiladigan mavzular bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifatlar quyidagilardan iborat:

Mavzu nomi	Mazmuni	Metodlar	Aksiologik yondashuv	Ma'naviy-axloqiy sifatlar
Turkiston Muxtoriyati va uning halokati	Turkiston Muxtoriyatining demokratik tajribasi va mustaqillik harakati	Keys-stadi, Tarixiy insonga xat yozish (mualliflik)	Mustaqillik g'oyasini qadrlash	Mustaqillik, fidoyilik, o'zlikni anglash
Qatag'onlar davri	Repressiyalar, ijtimoiy qatlamlarga ta'siri	“Tarixiy sud” metodi (mualliflik), Hujjatlar tahlili	Adolat va inson sha'ni uchun kurash	Halollik, e'tibor, empatiya
O'zbekiston mustaqillik yo'lida	Mustaqillikka erishish bosqichlari	Tarixiy-huquqiy hujjatlar tahlili, Hronologik loyihalar	Mustaqillik qadri	G'urur, fuqarolik pozitsiyasi

3-jadval

“O‘zbekiston tarixi” fanining 3-4-modullarida o‘tiladigan mavzular bo‘yicha bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini o‘quvchilarda tarixiy va ma’naviy ideallarga aksiologik munosabatni shakllantirishga tayyorlashda rivojlantiriladigan ma’naviy-axloqiy sifatlar

Mavzu nomi	Mazmuni	Metodlar	Aksiologik yondashuv	Ma’naviy-axloqiy sifatlar
Ma’naviy-ruhiy poklanish	Milliy qadriyatlarining tiklanishi	“Qadriyatlar tahlili”, shaxsiy tafakkur (mualliflik)	Ma’naviy uyg‘onish va o‘zlikni anglash	Ma’naviyat, vatanparvarlik, tafakkur
2017–2021 yillarda ijtimoiy va madaniy taraqqiyot	Yangi tiklanishlar, madaniy loyihalar	Multimediali tahlil, interaktiv loyiha	Yuksak ma’naviyatga intilish	Madaniyatga hurmat, ijodkorlik
Tashqi siyosat va qo‘shnilar bilan aloqalar	Mintaqaviy va xalqaro hamkorlik	Xaritaviy tahlil, “Hamkorlik moduli”	Tinchlik va mintaqaviy barqarorlik	Diplomatik fikr, tolerantlik

Yosh avlodda tarixiy ong, milliy o‘zlik, vatanparvarlik va insoniy qadriyatlarni shakllantirish o‘qituvchining asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarix fani bu borada g‘oyaviy-tarbiyaviy vosita sifatida katta salohiyatga ega. Shu boisdan, bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish – kasbiy tayyorgarlikning ustuvor yo‘nalishidir. Bu jarayonda ayniqsa “Tarix o‘qitish metodikasi” va “O‘zbekiston tarixi” fanlari muhim o‘rin egallaydi. Har ikkala fanning o‘quv dasturlarida qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tanlangan muayyan mavzular mavjud bo‘lib, ular orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda zarur ma’naviy-axloqiy sifatlar – adolatparvarlik, halollik, jasorat, sabr-toqat, tarixiy xotiraga sadoqat, g‘urur va fidoyilik kabi fazilatlar shakllanadi. Mazkur mavzularning aksariyati tajriba-sinov ishlari doirasida sinovdan o‘tkazilib, aynan shu mavzular o‘quvchilarda qadriyaviy tafakkurni uyg‘otishda samarali bo‘lgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, “Tarixiy manbalar bilan ishlash”, “Turkiston Muxtoriyati”, “Qatag‘onlar davri” yoki “Ma’naviy-ruhiy poklanish” kabi mavzular nafaqat tarixiy bilim beradi, balki shaxsiy, ijtimoiy va fuqarolik qadriyatlarini shakllantirishda g‘oyaviy-metodik asoslardir. Shu boisdan, mazkur fanlar doirasida tanlab olingan mavzular asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning aksiologik tayyorgarligini o‘rganish va baholash – tajriba-sinov ishlarining markaziy vazifasiga aylangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish darajasini aniqlash ilmiy-tadqiqot jarayonining muhim bosqichidir. Bu jarayon nafaqat nazariy bilimlarni, balki shaxsiy qadriyatlar tizimi, refleksiya darajasi, tarbiyaviy pozitsiya va kasbiy tayyorgarlik holatini ham baholashga xizmat qiladi. Tadqiqotda psixologik-pedagogik diagnostika vositalari asosida ba’zi yondashuvlar asos sifatida tanlandi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlanganlik darajasini psixodiagnostika qilishda qo‘llanilgan yondashuvlar

№	Yondashuv nomi	Tavsifi	Qo‘llanish maqsadi
1.	Shaxsiy-aksiologik yondashuv	Talabanning qadriyatlar tizimini, ma’naviy ideallarni qabul qilish darajasini o‘rganish	Shaxsiy qadriyatlar va tarixiy-ma’naviy ideallarga munosabatini aniqlash

2.	Refleksiv yondashuv	Talabani o'z faoliyatini va qadriyaviy pozitsiyasini anglash darajasini o'lash	O'zini anglash, tarixiy voqealarga subyektiv baho berish qobiliyatini baholash
3.	Motivatsion yondashuv	Tarix o'qituvchisining kasbiy qadriyatlarini va o'qituvchilik faoliyatiga ichki munosabati	Aksiologik tayyorgarlikda kasbiy ishtiyoq va ijtimoiy motivatsiyani aniqlash
4.	Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv	Amaliy ko'nikmalar orqali qadriyatlarni shakllantirishga tayyorlikni aniqlash	Tarixiy-ma'naviy mavzular asosida dars loyihasi tuzish va pedagogik refleksiya qilish
5.	Kompetensiyaviy yondashuv	Qadriyatlarga asoslangan kasbiy kompetensiyalar darajasini baholash	Aksiologik kompetensiyalar (axloqiy fikrlash, empatiya, tanqidiy tahlil)ni aniqlash

Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar orqali Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlanganligi kompleks yondashuv asosida baholandi. Ayniqsa, refleksiv va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali talabalarning aksiologik dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi hamda amaliy tayyorgarlik darajasi aniqlanib, bu metodlar keyingi bosqichlar uchun ishonchli mezonlar sifatida asoslab berildi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarda "Tarix o'qitish metodikasi" va "O'zbekiston tarixi" fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirishda quyidagi mavzular metodologik asos bo'lib xizmat qiladi

Mavzu nomi	Maqsad va vazifalari	Takliflar
Tarixiy manbalar bilan ishlash	Talabalarni tarixiy manbalarni tahlil qilishga, haqiqatga asoslangan tarixiy tafakkurni shakllantirishga o'rgatish	Asl hujjatlar asosida keys-stadi ishlash; "Ovoz bergan tarix" metodi asosida manba tafakkuri topshiriqlari kiritish
Darsni rejalashtirish	Qadriyat yondashuvi asosida dars tuzishni, har bir dars orqali tarixiy-ma'naviy g'oyani yoritishni o'rgatish	"4T modeli" va texnologik xaritalar asosida qadriyatga yo'naltirilgan dars rejalari tuzdirish
Pedagogik yondashuvlar	O'quvchilarda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tanlash	"Jigsaw", kichik guruh, aksilbahs kabi metodlar orqali qadriyatli muhit yaratish
Baholash metodikasi	Talabani o'zining qadriyat yondashuvi asosida darsdagi ishtirokini baholashga o'rgatish	"Refleksiya doirasi", shaxsiy fikr bahosi, qadriyat ko'rsatkichi asosida formatik baholash vositalarini ishlab chiqish
Turkiston Muxtoriyati va uning halokati	Talabalarda mustaqillik g'oyasiga hurmat, fidoyilik va tarixiy saboqlarni anglashni shakllantirish	Tarixiy insonga xat yozish, keys-stadi asosida Turkiston Muxtoriyati a'zolarining faoliyatini aks ettiruvchi topshiriqlar yaratish
Qatag'onlar davri	Talabalarda adolat, inson sha'ni, tarixiy ogohlik hissini shakllantirish	"Tarixiy sud" metodi, hujjatli film tahlili, shaxsiy guvohliklar asosida reflektiv tahlil mashg'ulotlari
O'zbekiston mustaqillik yo'lida	Mustaqillik qadri, fuqarolik pozitsiyasi va milliy g'ururni anglash	Tarixiy-huquqiy hujjatlar tahlili, xronologik loyiha tuzish, "Mustaqillik saboqlari" esse tanlovi
Ma'naviy-ruhiy poklanish	Talabada o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat, tafakkur tarbiyasini rivojlantirish	"Qadriyatlar tahlili" mashg'uloti, shaxsiy tafakkur yozuvlari, "Men kimman?" mavzusida bahs-munozara

2017-2021-yillarda ijtimoiy-madaniy taraqqiyot	O‘zbekistonning zamonaviy ma’naviy yangilanish jarayonlarini o‘rganish va qadriyatlardagi uzviylikni anglash	Madaniy loyihalar tahlili, madaniyat arboblari portreti asosida topshiriq, video-podkastlar tahlili
Tashqi siyosat va qo‘shnilar bilan aloqalar	O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro qadriyatlarga asoslangan siyosatini anglash, tinchlik va hamkorlik g‘oyasini targ‘ib qilish	“Hamkorlik moduli” orqali diplomatik rolli o‘yinlar, xarita asosida tashqi siyosiy aloqalarni baholovchi interaktiv mashqlar

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u bilim, munosabat va faoliyatning uzviy integratsiyasini taqozo etadi. Ayniqsa, tarixiy va ma’naviy ideallarga nisbatan qadriyaviy munosabatni shakllantirishga qaratilgan tayyorgarlik jarayonini puxta rejalashtirish, uni nazariy, amaliy va reflektiv komponentlar asosida bosqichlab tashkil etish muhimdir. 6-jadvalda bu tayyorgarlikning asosiy bosqichlari, har bir bosqichda erishiladigan natijalar va pedagogik yo‘nalishlar bayon etilgan.

6-jadval

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirish bosqichlari

Bosqich	Mazmuni	Asosiy maqsad va faoliyat yo‘nalishi	Kutilayotgan natija
Axborotli-bilish bosqichi	Tarixiy va ma’naviy ideallar, qadriyatlar, aksiologik yondashuv haqida nazariy bilim berish	Ilmiy-nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, tarixiy-falsafiy asoslarni o‘rganish	Qadriyat va tarixiy ideal mohiyatini tushunish, asosiy terminlarni bilish
Tahliliy-tanqidiy bosqich	Tarixiy faktlar asosida qadriyatlar mazmunini tahlil qilish, munosabat bildirish	Keyslar, esse, muammoli topshiriqlar orqali tarixiy-hissiy idrokni faollashtirish	Tanqidiy fikrlash, tarixiy haqiqatga asoslangan shaxsiy baho berish ko‘nikmasi
Amaliy-reflektiv bosqich	Qadriyatlarga asoslangan metodik dars tuzish va ularni amalda sinab ko‘rish	“Tarixiy sud”, “Tarixiy insonga xat” kabi metodlarni qo‘llash, refleksiya qilish	Aksiologik metodlardan foydalangan holda tarbiyaviy dars loyihasi yarata olish
Integrallashga n yakuniy bosqich	Qadriyatli yondashuvni kasbiy pozitsiyaga aylantirish, shaxsiy namunani shakllantirish	Tarixiy-ma’naviy mavzularni o‘zaro integratsiyada o‘qitish, mustaqil tahlillar	Mustaqil qaror chiqarish, qadriyatni real darsda singdirishga tayyorlik

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirishda reflektiv nuqtai nazarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Tarixiy yetakchilarning hayot yo‘lini taqqoslashga doir konseptual jadvali mashqidan foydalanish mumkin. Mazkur mashqni bajarish uchun muammoli savollar talabalar bilan birga ular uchun dolzarb va hayratlantiruvchi mavzular asosida shakllantiriladi (7-jadvalga qarang).

7-jadval

Tarixiy yetakchilarning hayot yo‘lini taqqoslashga doir konseptual jadval

Hukmdorlar	Hayoti va hukmdorlik yili	Hukmronlik qilgan hududlar	Tarixiy ahamiyatga molik ishlari
Aleksandr Makedonskiy			
Doro 1			

Yuliy Sezar			
Chingizxon			
Amir Temur			
Napoleon Bonapart			
Gitler			
Stalin			
Uinston Cherchel			
Mahatma Gandi			

“**IDEAL**” mashqi muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan jarayonni tizimli tahlil qilishga asoslangan yondashuvdir. Ushbu nazariya muammo hal qilish jarayonini tartibga solish orqali uni sodda, mantiqiy va samarali qilishga yordam beradi. IDEAL qisqartmasi orqali ifodalangan beshta asosiy bosqich – Identify (muammoni aniqlash), Description (muammoni tavsiflash), Explore (yechimlarni izlash), Act (harakat qilish va echimni amalga oshirish), va Look back (natijalarni tahlil qilish va o‘rganish) – har qanday murakkab vaziyatda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga sharoit yaratadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi – muammoni to‘liq tushunish va unga to‘g‘ri echim topish uchun zarur bo‘lgan bosqichlarni aniqlash va ularni bir tizimga keltirishdir. Ushbu metodni nazariy jihatdan tahlil qilish orqali quyidagi asosiy fikrlarni ishlab chiqish mumkin.

“**Qadriyatlar keysi**” metodi ta‘lim jarayonida talabalarni tarixiy va ma‘naviy ideallarga aksiologik munosabatini o‘rganish uchun ishlatiladigan metod bo‘lib, unda muayyan mavzularni chuqur tahlil qilish, muammo va yechimlarni aniqlash, shuningdek, qadriyatlarni ishlab chiqish va o‘zgartirish jarayonlari orqali talabalarining fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu metodni “Mustaqillik yillarida ma‘naviy va madaniy hayotning tiklanishi” mavzusida qo‘llash orqali jamiyatning qadriyatlar tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlarni va bu o‘zgarishlarning ijtimoiy hayotga qanday ta‘sir qilganini chuqur tahlil qilish mumkin. Bu metod orqali talabalar tarixiy va ma‘naviy ideallarga aksiologik munosabatini shakllanishi, muammolarni hal qilishda samarali qarorlar qabul qilish, boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish va o‘z fikrlarini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

“**Tasvirlar so‘zlaganda**” metodi talabalar ma‘lum bir rasimga o‘z munosabatlarini bildiradilar. Bu orqali rasmdagi holat, personajning o‘sha davr va vaziyatdan kelib chiqqan holda uning fikrlari, tuyg‘ularini bayon qiladi. O‘ylash va fikrlash uchun qo‘l keladigan rasmlar, tasvirlar, plakatlar va videolavhalar kerak bo‘ladi. Rasmlar, tasvirlar, plakatlar, videolavhalarning manbalari bo‘yicha qisqacha ma‘lumot o‘qituvchi tomonidan taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tadqiqot ishi doirasida “Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati” mavzusini tushuntirishda mazkur metoddan foydalanildi va talabalarni tarixiy va ma‘naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirdi.

Modellashtirish o‘rganilayotgan jarayonning mantiqiy tartibga solinishini, uni ko‘rgazmali shaklda taqdim etishni ta‘minlaydi. Bu model o‘quv jarayonini psixologik va pedagogik asoslashga mo‘ljallangan, o‘z xatti-harakatlarini va boshqa odamlarning xatti-harakatlarini boshqarish va tuzatish, hamjihatlikdagi faoliyat asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini o‘quvchilarda tarixiy va ma‘naviy

